

MAKTAB O'QUVCHILARIDAGI EMOTSIONAL HOLATLAR VA ULARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

*TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMIGA
QARASHLI 1- SONLI MAKTAB PSIXOLOGI
ESHQULOVA ROZA OMONOVNA*

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktab o'quvchilaridagi emotsional holatlarning shakllanishi, ularning kasb tanlash jarayoniga ta'siri hamda kasb-hunarga yo'naltirishning psixologik omillari yoritiladi. O'quvchilarning qiziqishi, qobiliyati, ichki motivatsiyasi va ruhiy holatini hisobga olish kasbiy yo'nalishni to'g'ri belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: emotsional holat, kasb tanlash, kasb-hunarga yo'naltirish.

Kirish

Bugungi kunda o'quvchilarni kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirish ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Kasb tanlash insonning kelajak hayoti, ijtimoiy mavqei va ruhiy qoniqishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli bu jarayonda o'quvchilarning emotsional holatini chuqur o'rganish muhimdir. Emotsional holat insonning ichki hissiy kechinmalari va ruhiy kayfiyatini ifodalaydi. O'smirlik davrida hissiyotlarning o'zgaruvchanligi kuchayadi, bu esa kasb tanlash qaroriga ham ta'sir qilishi mumkin. O'ziga ishonchsizlik, xavotir yoki stress holati ayrim o'quvchilarning o'z qobiliyatini to'liq namoyon etishiga to'sqinlik qiladi. Kasb-hunarga yo'naltirish jarayonida psixologik omillar muhim rol o'ynaydi. Eng avvalo, o'quvchining qiziqishi va moyilligini aniqlash zarur. Inson qiziqqan faoliyat bilan shug'ullanganda ko'proq muvaffaqiyatga erishadi va ruhiy qoniqish hosil qiladi. Shuningdek, qobiliyat va individual xususiyatlarni hisobga olish ham muhimdir. Har bir o'quvchining intellektual salohiyati, xarakteri va temperament turi turlicha bo'lgani sababli kasb tanlashda individual yondashuv talab etiladi.

Asosiy qism

Psixologik diagnostika kasbga yo'naltirishda samarali vositalardan biri hisoblanadi. Turli testlar va suhbatlar orqali o'quvchining qiziqishlari, qobiliyati va emotsional barqarorligi aniqlanadi. Ota-onalar va o'qituvchilarning bosimi ba'zan o'quvchilarning noto'g'ri kasb tanlashiga sabab bo'ladi. Shu sababli o'quvchining shaxsiy fikri va ichki istaklarini inobatga olish zarur. Emotsional jihatdan qo'llab-quvvatlangan o'quvchi o'z imkoniyatlariga ko'proq ishonadi. Rag'batlantirish, motivatsion suhbatlar va

ijobiy muhit o'quvchilarning kasbiy o'zligini shakllantirishga yordam beradi. Maktab psixologi bu jarayonda muhim o'rin tutadi. U o'quvchilarning emotsional holatini kuzatib boradi, kasbiy qiziqishlarini aniqlaydi va ularga psixologik maslahat beradi. Shuningdek, kasblar haqida keng ma'lumot berish, turli kasb egalari bilan uchrashuvlar tashkil etish o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi va ongli tanlov qilishiga yordam beradi. Ma'lumotlarda ko'rsatilishicha, emotsional holatlarning fiziologik mohiyati katta yarim sharlar po'stining va po'stloqosti tizimi markazlarining funksiyasigina emas, balki ular: a) miya mexanizmlari faoliyatini faollashtiruvchi retikulyar formatsiyaning, b) miya talamusi (ko'rish do'ngliklari)ning, gipotalamusining (do'nglik osti qismining), d) yarim sharlar yangi po'stlog'i orasidagi limbik sistemaning funksiyalaridir. Emotsional holatlar uchun po'stloqosti tugunchalarining tarkibiga kiruvchi (miya katta yarim sharlarining oq moddasi bilan birlashuvchi kulrang modda yig'indisi) markazlar ham muhim ahamiyatga ega. Agarda miya katta yarim sharlari po'stlog'i harakatlarni birlashtirib, sezgilarni va sa'yharakatlarni nozik ifoda qilib tursa, miya formatsiyalari tashqi hamda ichki muhitda sodir bo'ladigan o'zgarishlarga organizmning javob reaksiyalarini boshqaradi. Ma'lumotlarga qaraganda, miya katta yarim sharlari po'stlog'i shikastlansa, tashqi olamdan hamda ichki organlardan keladigan qo'zg'ovchilarning nozik tahlil qilinishi zaiflansa ham emotsional holatlar saqlanib qolaveradi. Masalan, hayvonlar limbik tizimga, do'ng osti (gipotalamus) qismiga, ko'rish tepaliklariga yo'nalgan elektr qo'zg'atuvchilarga, retikulyar formatsiyasining qo'zg'alishlariga xursandlik yoki diqqinafaslik, darg'azablik yoki qo'rqqoqlik, lazzatlanish yoki azoblanish, rohatlanish yoki ko'ngilxijillik sifatida javob reaksiyasi hosil bo'ladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ijobiy va salbiy his-tuyg'ularning shunga o'xshash markazlari bilan miyaning boshqa bo'limlarida joylashganligiga qaramay, shartli ravishdagi rohatlanish va azoblanish markazlari ham mavjuddir. Emotsiyalar bir-biriga yaqin masofada faoliyat ko'rsatadilar. Tajribada qo'sh (juft) markazlaridan birida elektrod bilan hosil qilingan qo'zg'atish ehtiyojidan kelib chiqqan holda salbiy yoki ijobiy emotsiyadan faqat bittasini vujudga keltirgan, xolos. Ba'zida yondosh joylashgan markazlarda qo'zg'alish tarqalgan bo'lsa, u holda ambivalent yoki ikkiyoqlama reaksiya ro'yobga chiqadi. Shartli ravishda nomlangan markazlar (rohatlanish, azoblanish) bir-biriga yaqin joylashishiga qaramasdan, har xil tuzilishga ega ekanligi aniqlangan. Ma'lumotlarning ko'rsatishicha, «azoblanish» markazlari miyaning turli bo'limlarida joylashsa-da, lekin ular yagona tizim bilan boshqariladi. Salbiy emotsiyalardan farqli o'laroq ijobiy his-tuyg'ular va «rohatlanish» markazlari bir-birlari bilan jips aloqaga ega emas. Ta'kidlab o'tilgan mulohazalar, emotsiyalar juft hamda qarama-qarshi

xususiyatga ega ekanligidan dalolat bermoqda. Shuning uchun har qaysi emotsiya qarama-qarshi turkumga ega deb qat'iy ishonch bilan aytish mumkin, jumladan, sevgi-nafrat, yoqimli-yoqimsiz, xotirjamlik-bezovtalanish, mas'uliyatlilik-loqaydlik va boshqalar. Kasb jamiyatning mehnatga layoqatli a'zolarini ijtimoiy tashkillashtirishning alohida shakli bo'lib, bunda a'zolar faoliyatining umumiy turi va kasbiy ongi bilan birlashgan. B. Shouning fikri bo'yicha kasb - mutaxassislarning chetdagi odamlarga qarshi fitnasidir. YE.A. Klimov o'z ishlarida bu borada bir necha ta'riflarni ilgari suradi. Nisbat batafsil ta'rif quyidagicha "Kasb - jamiyat uchun zarur va qadriyatli soha bo'lib bunda insondan jismoniy va ruhiy kuch talab etadi" bu kuchlar unga sarflangan mehnat o'rniga yashashi va rivojlanishi uchun muhim vositalar omili sifatida namoyon bo'ladi. Bu ta'rifni yanada batafsil yoritib, YE.A. Klimov kasbiy faoliyatning sifatli tarixiy rivojlanuvchi tizim va shaxsning o'zini namoyon etish sohasi deb ta'riflaydi. Har bir shaxs turi ma'lum kasbiy muhitga yo'naltirilgan idealistik tur - moddiy buyumlar yaratishga texnologik jarayon va texnik qurilmalar, iqtidor - aqliy mehnatga, ijtimoiy - iqtisodiy mehnat bilan o'zaro aloqaga, konvensional aniq tuzilgan faoliyatga, ishbilarmonlik - odamlarga rahbarlik va badiiy - ijodga. har bir shaxs turi modeli quyidagi sxema bo'yicha tuziladi: maqsadlar, qadriyatlar, qiziqishlar, qobiliyatlar, istalgan kasbiy rollar mumkin bo'lgan yutuqlar, karera va boshqalar.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, maktab o'quvchilaridagi emotsional holatlar kasb tanlash jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. To'g'ri psixologik yondashuv, individual qo'llab-quvvatlash va kasbiy yo'naltirish ishlari orqali o'quvchilarning kelajak kasbini ongli ravishda tanlashiga yordam berish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. – T.: O'zMU, 2003. 156-b
2. Yusupova F. I. O'quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. "Xalq ta'limi" jurnali. 2005. №5. 90-93-b.
3. Maxmudova. D. "O'quvchilarni kasbga yo'naltirishga oid pedagogi k faoliyat element lari orasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash". Xalq ta'limi jurnali. №3 son, 57-58 bet.
4. www.ziyonet.uz